

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SHE'RIYATDA INSON TASVIRINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI (GULJAMOL ASQAROVA SHE'RLARI MISOLIDA.)

Azimova Dilobar Shermamat qizi

Navoiy davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: azimovadilobar27@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-2238-8936>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri Guljamol Asqarova she'rlarida inson tasvirining lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot uchun shoira ijodidagi "Taskin", "Nur", "Asrab qol", "Mensiz ham", "Umid", "Do'stijon", "Ikki qo'rg'on", "O'zim", "Xirgoyi", "Afsus", "Duotalab ruh", "Ruhimning she'ri", "Meni kechir", "Shoir hasrati", "Ichimdagi ibodatim" kabi she'rlar asos qilib olindi. Maqolada inson ruhiyati, ichki kechinmalari, muhabbat, sog'inch, hijron, umid, iztirob, ota-ona mehri, do'stlik, Vatan va ma'naviy kamolot tushunchalarining poetik nutqda ifodalanish mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, murojaat birliklari, metafora, takror, ritorik so'roq, iltijo, ichki monolog va emotsional-ekspressiv birliklarning pragmatik vazifalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, she'riy matn, inson tasviri, pragmatik ma'no, lirik qahramon, metafora, murojaat birliklari, emotsional-ekspressivlik, poetik nutq, Guljamol Asqarova.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗОБРАЖЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА В ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ГУЛЖАМОЛ АСКАРОВОЙ)

Азимова Дилобар Шермама кизи

Навоийский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье исследуются лингвопрагматические особенности изображения человека в стихотворениях одной из талантливых представительниц современной узбекской поэзии — Гулжамол Аскарлова. В качестве материала исследования были использованы такие произведения поэтессы, как «Таскин», «Нур», «Асраб қол», «Менсиз ҳам», «Умид», «Дўстижон», «Икки қўрғон», «Ўзим», «Хиргойи», «Афсус», «Дуоталаб руҳ», «Рухимнинг шеъри», «Мени кечир», «Шоир ҳасрати», «Ичимдаги ибодатим». В статье рассматриваются механизмы выражения в поэтической речи таких понятий, как человеческая душа, внутренние переживания, любовь, тоска, разлука, надежда, страдание, родительская любовь, дружба, Родина и духовное совершенствование. Также освещаются прагматические функции обращений, метафоры, повтора, риторического вопроса, мольбы, внутреннего монолога и эмоционально-экспрессивных средств.

Ключевые слова: лингвопрагматика, поэтический текст, образ человека, прагматическое значение, лирический герой, метафора, обращения, эмоционально-экспрессивность, поэтическая речь, Гулжамол Аскарлова.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF HUMAN REPRESENTATION IN POETRY (BASED ON THE POEMS OF GULJAMOL ASQAROVA)

Azimova Dilobar Shermamat qizi

Navoi State University, Doctoral Researcher.

Abstract.

Introduction. This article examines the linguopragmatic features of human representation in the poetry of Guljamol Asqarova, one of the talented representatives of modern Uzbek poetry. The study is based on such poems as "Taskin", "Nur", "Asrab qol", "Mensiz ham", "Umid", "Do'stijon", "Ikki qo'rg'on", "O'zim", "Xirgoyi", "Afsus", "Duotalab ruh", "Ruhimning she'ri", "Meni kechir", "Shoir hasrati" and "Ichimdagi ibodatim". The article analyzes the linguistic expression of human psychology, emotional experience, love, longing, separation, hope, suffering, parental affection, friendship, homeland and spiritual development in poetic discourse. Particular attention is paid to the pragmatic functions of address forms, metaphors, repetitions, rhetorical questions, supplications,

inner monologues and emotionally expressive linguistic units.

Keywords: linguopragmatics, poetic text, human representation, pragmatic meaning, lyrical hero, metaphor, forms of address, emotional expressiveness, poetic discourse, Guljamol Asqarova.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni inson omili bilan bog'liq holda o'rganish antropotsentrik paradigmaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til faqat aloqa vositasi emas, balki inson tafakkuri, ruhiyati, hissiy olami va dunyoqarashini ifodalovchi murakkab semiotik tizimdir. Ayniqsa, she'riy matnda insonning ichki kechinmalari, ma'naviy iztiroblari, ruhiy ziddiyatlari va hayotiy qarashlari nihoyatda ixcham, obrazli va ta'sirchan shaklda namoyon bo'ladi. Lingvopragmatika til birliklarining nutq jarayonidagi qo'llanishi, muallifning kommunikativ maqsadi, adresatga ta'sir ko'rsatish usullari hamda matndagi yashirin ma'no qatlamlarini o'rganadi. She'riy matnda pragmatik ma'no ko'pincha metafora, takror, murojaat, ritorik savol, iltijo, ichki monolog va emotsional-ekspressiv vositalar orqali yuzaga chiqadi. Shu bois she'riyatda inson tasvirining lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq etish badiiy matnning mazmuniy, estetik va kommunikativ tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Guljamol Asqarova zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos poetik uslubga ega ijodkorlardan biridir. U O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika fakultetini tamomlagan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. 2001-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Shoiraning "Dil fasli", "Ro'shnolik", "Bedor qo'ng'iroq", "Baxt dastxati" kabi she'riy kitoblari nashr etilgan. Shoir a ijodida inson obrazi ruhiy iztirob, muhabbat, sog'inch, mehr, umid, tavba, iltijo, o'zlikni anglash va ma'naviy yuksalish jarayonlari orqali tasvirlanadi. Uning lirik qahramoni hayotning murakkab sinovlari qarshisida turgan, o'z qalbi bilan muloqot qilayotgan, ba'zan umidsizlikka tushgan, ba'zan esa ruhiy poklanish va yuksalishga intilgan inson sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkorning ma'naviy mavjudligi, xalq oldidagi mas'uliyati va poetik umri uning she'rlarida ramziy tarzda ifodalanadi. Til birliklari kuchli pragmatik vazifa bajaradi: ular o'quvchida ijodkor shaxsining ijtimoiy-ma'naviy pozitsiyasi haqida tasavvur uyg'otadi.

Maqolaning asosiy maqsadi Guljamol Asqarova she'riyatida inson tasvirining lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash, inson obrazini yaratishda qo'llangan til birliklarining kommunikativ-pragmatik vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Guljamol Asqarovaning she'riy matnlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa mazkur she'rlarda inson tasvirini yuzaga chiqaruvchi lingvopragmatik vositalar, xususan, metafora, takror, murojaat birliklari, ritorik savollar, emotsional-ekspressiv ifodalar va ichki monolog shakllaridan iborat.

Mavzuning dolzarbligi. She'riy matnni lingvopragmatik aspektda o'rganish bugungi o'zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan biridir. Chunki badiiy matnda til birliklari faqat nominativ vazifani bajarmaydi; ular muallifning estetik niyati, hissiy munosabati va adresatga ta'sir ko'rsatish maqsadini ham ifodalaydi. Ayniqsa, inson tasviri bilan bog'liq poetik birliklar matnda chuqur semantik va pragmatik yuk tashiydi. Guljamol Asqarova she'riyatida inson obrazi biryoqlama talqin qilinmaydi. Shoir a insonni ba'zan sevuvchi va sog'inuvchi, ba'zan iztirob chekayotgan, ba'zan o'zligini anglashga urinayotgan, ba'zan esa Xudoga iltijo qilayotgan ruhiy mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu holat uning she'rlarini lingvopragmatik tahlil qilish uchun boy ilmiy materialga aylantiradi. Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, Guljamol Asqarova she'riyati bo'yicha adabiy-tanqidiy fikrlar mavjud bo'lsa-da, uning she'rlarida inson tasvirining aynan lingvopragmatik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola shoir a poetik nutqining pragmatik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tavsifiy, semantik-pragmatik, kontekstual va lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali Guljamol Asqarova she'rlarida inson tasvirini ifodalovchi asosiy til birliklari aniqlandi. Kontekstual tahlil yordamida ushbu birliklarning she'riy matndagi vazifasi o'rganildi. Lingvopragmatik tahlil orqali esa muallifning kommunikativ maqsadi, lirik qahramon ruhiyati va o'quvchiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari tahlil qilindi.

Tadqiqot materiallari sifatida Guljamol Asqarovaning "Taskin", "Nur", "Asrab qol", "Mensiz ham", "Umid", "Do'stixon", "Ikki qo'rg'on", "O'zim", "Xirgoyi", "Sizga", "Afsus", "Duotalab ruh", "Ruhimning she'ri", "Meni kechir", "Shoir hasrati", "Qurbonoy opaning she'ri", "E'tirof", "Bevafo do'st", "Ichimdagi ibodatim" kabi she'rlari asos qilib olindi.

Asosiy tahlil. Guljamol Asqarova she'riyatida inson tasviri, avvalo, ichki kechinmalar orqali ochiladi. Shoir a inson qalbining og'riqli, iztirobli va umidli holatlarini tasvirlashda emotsional-ekspressiv vositalardan samarali foydalanadi. Uning lirik qahramoni tashqi voqelikni tasvirlashdan ko'ra, ko'proq o'z ruhiy holatini ifodalashga intiladi. "Umid" she'rida insonning hayot va o'lim, foniylilik va abadiylik haqidagi kechinmalari aks etadi:

*Guldan yaralgandim-ku,
Nurdan yaralgandim-ku,
Nahot oppoq qo'llarim,
Qaro tuproq bo'lgaydur.*

Bu misralarda "gul", "nur", "oppoq qo'llar" va "qaro tuproq" obrazlari qarama-qarshi semantik maydonni yuzaga keltiradi. "Gul" va "nur" poklik, go'zallik, hayot va ilohiylik ma'nolarini ifodalasa, "qaro tuproq" foniylilik, o'lim va yo'qlikka ishora qiladi. Lingvopragmatik jihatdan mazkur qarama-qarshilik o'quvchida inson umrining o'tkinchiligi haqida chuqur mushohada uyg'otadi. She'rning yakunida esa lirik qahramon umidsizlikdan ma'naviy ishonch sari ko'tariladi:

*Ne bo'lsam ham so'zlarim
Elga bayroq bo'lgaydur!*

Bu yerda "bayroq" metaforasi ijodkor so'zining xalq uchun yo'l ko'rsatuvchi, ruhlantiruvchi va birlashtiruvchi kuch ekanini anglatadi. Demak, inson tasviri ijodkor shaxsi va so'z mas'uliyati bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Guljamol Asqarova she'rlarida murojaat birliklari inson tasvirini yaratishda faol vosita hisoblanadi. Shoir a lirik

qahramonning ruhiy holatini ko'pincha bevosita murojaat orqali ochib beradi. "Do'stjon" she'rida "do'stjon" murojaati takroriy tarzda qo'llanib, yaqinlik, mehr, sog'inch va iltijo ma'nolarini ifodalaydi:

*Ay do'stjon, ko'zlaringni bir ko'ray,
Xudo bizga baxt berganmi, bilmadim.*

Bu misralarda lirik qahramonning do'stga bo'lgan ehtiyoji oddiy xabar tarzida emas, balki iltijo ohangida ifodalanadi. "Ko'zlaringni bir ko'ray" birikmasi ko'rish istagidan tashqari, ruhiy taskin topish, mehrga erishish, qalbdagi bo'shliqni to'ldirish ma'nolarini ham bildiradi. She'r davomida

Men mehrdan bunyod bo'lgan dengizman,

Bag'ringni och, hech bahrqa to'lmadim. satrlari uchraydi. Bu yerda "mehrdan bunyod bo'lgan dengiz" metaforasi insonning ichki olami nihoyatda keng, mehrga boy, ammo baribir yetimlik va to'yimaslik hissi bilan yashayotgan ruhiy mavjudot sifatida tasvirlanganini ko'rsatadi.

"Ikki qo'rg'on" she'rida inson tasviri ota-ona obrazi orqali yoritiladi. Shoir ota va onani inson hayotining eng asosiy himoya tayanchi sifatida talqin qiladi:

*Onang ketsa savlatlaring ketgaydir,
Otang ketsa davlatlaring ketgaydir.
Shu ikkala qo'rg'oningdan ayrilsang,
Manglaydagi zar xatlaring ketgaydir.*

Bu misralarda "qo'rg'on" metaforasi ota-onaning farzand hayotidagi himoya, tayanch va baraka manbai ekanini bildiradi. "Savlat", "davlat", "zar xat" kabi birliklar esa insonning ijtimoiy va ma'naviy qadrini ifodalovchi leksemalar sifatida qo'llangan. Lingvopragmatik jihatdan mazkur she'r o'quvchiga bevosita tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Shoir ota-onani qadrlash g'oyasini ochiq didaktik bayon bilan emas, balki obrazli va ta'sirchan poetik vositalar orqali ifodalaydi.

"O'zim" she'rida lirik qahramon o'z ruhiy holatini ichki monolog tarzida ifodalaydi:

*Menam banda, Xudoyimdan bir nur so'rab yuribman,
Atrofim loy, men qalbimni gulga o'rab yuribman.*

Mazkur misralarda "loy" va "gul" obrazlari qarama-qarshi ma'nolarni hosil qiladi. "Loy" dunyoviy ifloslik, og'irlik, gunoh va tashvish ma'nolarini bildirsa, "gul" poklik, go'zallik va ruhiy nafislik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon o'zini murakkab hayotiy muhitda ham qalb pokligini saqlashga urinayotgan inson sifatida tasvirlaydi.

She'rda insonning tashqi ko'rinishi va ichki holati o'rtasidagi ziddiyat ham ko'rinadi:

*Ayturlarki: siz bir tog'siz, g'amlar sizga kor qilmas,
Bilmaslarki, ich-ichimdan nurab-nurab yuribman.*

Bu yerda "tog'" obrazi tashqi bardoshlilikni, "nurab-nurab yurmoq" esa ichki yemirilish va ruhiy zaiflikni bildiradi. Pragmatik jihatdan bu misralar inson ruhiyatining ko'zga ko'rinmaydigan qatlamlarini ochib beradi.

Guljamol Asqarova she'riyatida Xudoga murojaat, tavba, duo va iltijo motivlari alohida o'rin tutadi. "Xirgoyi" she'rida lirik qahramon o'zligini izlaydi:

*Xudoyim-a, Xudoyim,
Aytgil o'zi men kimman?*

Mazkur ritorik murojaatda insonning mavjudlik haqidagi savoli ifodalanadi. "Men kimman?" savoli faqat shaxsiy izlanish emas, balki falsafiy-pragmatik mazmunga ega bo'lib, insonning hayotdagi o'rni, ruhiy mohiyati va taqdiri haqida mushohada qilishga undaydi.

"Duotalab ruh" she'rida esa insonning ota-onadan rozilik olish, duo va kechirimga ehtiyoji kuchli ifodalanadi:

*Yaxshi farzand bo'lolmadim hech,
Ko'paytirdim boshimda g'amni.
Na otamning duosin oldim,
Na onamning duosin oldim.*

Bu misralarda lirik qahramonning o'ziga nisbatan tanqidiy munosabati, aybdorlik hissi va ruhiy iztirobi namoyon bo'ladi. "Duo" leksemasi bu yerda diniy tushuncha bo'lish bilan birga, insonning ma'naviy ehtiyoji, ruhiy najot manbai sifatida pragmatik yuklama oladi.

Guljamol Asqarova she'riyatida inson tasvirining markaziy qatlamlaridan biri muhabbat konsepti bilan bog'liqdir. Shoir ijodida muhabbat oddiy hissiy holat emas, balki insonning ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi, uning ruhiy olamini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Muhabbat bilan bog'liq poetik birliklar lirik qahramonning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

"Meni kechir" she'rida muhabbatning fidoyilik va afsus bilan bog'liq jihatlari namoyon bo'ladi:

*Qo'llaringni qo'llarim topdi,
Ko'zlaringni ko'rdi ko'zlarim.
Ammo qalbing yaralarini
Ko'rolmadim... meni kechirgil.*

Mazkur misralarda insonning o'z aybini anglashi, kechirim so'rashi va ruhiy poklanishga intilishi aks etgan. "Qalbing yaralari" birikmasi metaforik xarakterga ega bo'lib, insonning ichki og'riqlari va ruhiy iztiroblarini ifodalaydi. Pragmatik jihatdan esa bu satrlar o'quvchida hamdardlik va rahm-shafqat hissini uyg'otadi.

Muhabbatning ayriliq bilan bog'liq jihatlari "Men sizni bezovta qilmasman ortiq" she'rida yaqqol ko'zga tashlanadi:

*Mabodo sog'inib qolsangiz agar,
Qo'ng'iroq qilarman...*

Ming yildan keyin.

Ushbu misralarda mubolag'a va kinoyaviy ma'no birgalikda qo'llangan. "Ming yildan keyin" ifodasi ayriliqning cheksizligini va qalbdagi og'riqning naqadar kuchli ekanini ko'rsatadi. Bu esa matnning pragmatik ta'sirchanligini oshiradi.

Shoira ijodida inson tasviri faqat shaxsiy kechinmalar bilan cheklanmaydi. Ayrim she'rlarda inson va Vatan munosabati ham yuksak poetik ruhda ifodalanadi. "Ruhimning she'ri" asarida lirik qahramon o'zini Vatan bilan uzviy bog'liq holda tasvirlaydi:

Azal-abad shu tuproqning qiziman men,

To'marisning qonda qolgan iziman men.

Bu misralarda tarixiy xotira, milliy o'zlik va vatanparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. "To'marisning iziman" birikmasi milliy qahramon timsoli orqali lirik qahramonning ruhiy qudratini va tarixiy ildizlarini ifodalaydi. She'r davomida "Men tuproqqa ko'ksim berib yuksalaman" satri uchraydi. Ushbu misrada paradoksal ma'no mavjud. Odatda yuksalish yuqoriga harakatni anglatadi, shoira yuksalishning manbaini tuproq bilan bog'laydi. Bu yerda tuproq Vatan, tarix, milliy xotira va ma'naviy ildizlar ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Guljamol Asqarova she'riyatida ijodkor shaxsi ham inson tasvirining muhim ko'rinishlaridan biridir. "Shoir hasrati" she'rida ijodkorning jamiyatdagi o'rni va qadr topish masalasi yoritiladi:

Men bir shoir edim, ohanglari xush,

Onamning qornida ko'rgan edim tush.

Men ozod bog'larda kuylagan bir qush,

Qafasida o'lgan bulbulcha qadrim yo'q.

Mazkur misralarda "qush", "bulbul", "qafas" obrazlari erkinlik va cheklanish tushunchalarini ifodalaydi. Shoira ijodkorning ichki erkinligi va jamiyatdagi mavqei o'rtasidagi ziddiyatni badiiy vositalar orqali ochib beradi. "Bulbulcha qadrim yo'q" satri esa pragmatik jihatdan kuchli ta'sirga ega bo'lib, o'quvchini ijodkor mehnati va uning qadri haqida mushohada yuritishga undaydi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari Guljamol Asqarova she'riyatida inson tasviri ko'p qatlamli lingvopragmatik tizim asosida shakllanganligini ko'rsatdi. Birinchidan, shoira she'rlarida inson ruhiyati muhabbat, sog'inch, hijron, umid, mehr, ota-ona qadri, vatanparvarlik va ma'naviy poklanish kabi konseptlar orqali ifodalanadi. Ikkinchidan, metafora, takror, murojaat, ritorik savol, ichki monolog va iltijo shakllari inson obrazini yaratishning asosiy lingvopragmatik vositalari sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, she'riy matnlarda muallifning kommunikativ maqsadi nafaqat estetik zavq uyg'otish, balki o'quvchining ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatish, uni mushohada va xulosaga undashdan iboratdir. To'rtinchidan, shoira ijodida inson obrazi individual kechinmalar bilan bir qatorda ijtimoiy, axloqiy va milliy qadriyatlar bilan ham uzviy bog'langan.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Guljamol Asqarova she'riyatida inson tasviri lingvopragmatik jihatdan murakkab va serqatlam tizimni tashkil etadi. Shoira insonning ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini, muhabbat va sog'inch tuyg'ularini, ota-ona mehri ehtiyojini, Vatan va e'tiqod bilan bog'liq qarashlarini badiiy til vositalari orqali mahorat bilan ifodalaydi. Shoira ijodida metafora, murojaat birliklari, ritorik savollar, takrorlar va emotsional-ekspressiv vositalar inson obrazining semantik va pragmatik mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Mazkur vositalar nafaqat badiiy-estetik vazifani bajaradi, balki o'quvchining hissiy olamiga ta'sir ko'rsatib, matnning kommunikativ samaradorligini ta'minlaydi. Guljamol Asqarova she'riyatida inson obrazi mehrga tashna, izlanayotgan, iztirob chekayotgan, ammo ruhiy yuksalish sari intilayotgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa shoira poetikasining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, G. Asqarova she'rlari lingvopragmatik nuqtayi nazardan o'rganilganda, ularda inson ruhiyati va ma'naviy olamining poetik ifodasi o'ziga xos badiiy hamda kommunikativ tizim asosida qurilganligi namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.
2. Xudoyberganova D. *Matnning antropotsentrik tadqiqi*. – Toshkent: Fan, 2013. – 224 b.
3. Yo'ldoshev M. *Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari*. – Toshkent: Fan, 2007. – 123 b.
4. Nurmonov A. *Tanlangan asarlar*. 3-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 368 b.
5. Mahmudov N. *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab*. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012. – 312 b.
6. Mengliyev B. *Hozirgi o'zbek tili*. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 408 b.
7. Hakimov M. *O'zbek pragmalingvistikasi asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 256 b.
8. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.
9. Searle J. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
10. Leech G. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983. – 250 p.
11. Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 152 p.
12. Mey J. *Pragmatics: An Introduction*. – Oxford: Blackwell Publishing, 2001. – 423 p.
13. Asqarova G. *Dil fasli*. – Toshkent, 2004.
14. Asqarova G. *Ro'shnolik*. – Toshkent, 2008.
15. Asqarova G. *Bedor qo'ng'iroq*. – Toshkent, 2011.
16. Asqarova G. *Baxt dastxati*. – Toshkent, 2015.
17. Asqarova G. *She'rlar // Kitob dunyosi*. – 2013. – № 5 (152).
18. *O'zbek tilining izohli lug'ati*: 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
19. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
20. Rasulov R. *Badiiy matn pragmatikasi masalalari*. – Toshkent, 2016.